

SPECIFIC FEATURES OF THE ABSTRACT NOUNS

E'zoza F. Sharipova*

* Student, Gulistan State Pedagogical Institute (Uzbekistan)

MAVHUM OTLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

E'zoza F. Sharipova*

* Talaba, Guliston davlat pedagogika instituti (O'zbekiston)

Tilshunoslikda ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ma'lum bir leksemaning nutqda birikma hosil qilish imkoniyati cheklanganligi uning lug'aviy ma'nosidagi o'ziga xoslik bilan izohlanadi, ya'ni bunday so'z anglatgan ma'nosiga ko'ra juda kam so'zlar bilangina birikma hosil qila oladi, xolos. Biroq bu kabi holat barcha leksemalarga taalluqli emas. Anglashiladiki, morfologik vositalar ham bunday leksema ishtirokidagi birikmalarda cheklangan miqdorda qo'llanadi. Bu kabi leksemalar talaffuz qilinganda (o'qilganda) u birikma hosil qila oladigan leksemalargina so'zlovchining (tinglovchining ham) ongida birikuvchi so'z sifatida taklif etilishi alohida sath sifatida namoyon bo'ladi. Demak, so'zlarning birikuvi til birliklarining ham lug'aviy, ham grammatik xususiyatlarini namoyon etuvchi hodisa sifatida baholash mumkin. Chunki tilshunoslikda lug'aviy va sintaktik birikuvchanlik turlari ajratiladi¹. Yuqoridagilarni inobatga olgan holat leksemaning lug'aviy birikuvchanligi deganda, uning ma'nosiga mos bo'lgan lug'aviy ma'noga ega leksemalardan birining tanlanishini tushunilsa, sintaktik birikuvchanlik bog'lovchi vositalar orasidan aynan shu birikma uchun zarur bo'lgani tanlanishini nazarda tutish mumkin². Lekin aslini olganda, leksika va sintaksisning bog'liqligi haqida gap ketganda, lug'aviy va sintaktik birikuvchanlikning o'zaro aloqadorligi nazarda tutish lozim. Bu faslda olib borilayotgan ilmiy tahlillar aynan leksik birikuvchanlikka oid bo'lib, mavhum otlarda birikuvchanlik xususiyatining ifodalanishi nazarda tutilgan. Mavhum otlar ham ma'lum bir doiradagi, ma'lum bir diapazondagi so'zlar bilan birikma hosil qila oladi. Masalan, *aql* leksemasi o'zbekcha matnlarda, asosan, *inson* leksemasi bilan birikma hosil qiladi. Mazkur leksema (aqli)uy, shahar kabi o'rin bildiruvchi so'zlarga bilan kamdan-kam hollarda birikadi. Ya'ni aql leksemasining birikuvchanlik imkoniyati cheklangan miqdorda, shu sababli bu leksema nihoyatda kam birikmalarda ishtirok eta olishi asoslab berildi.³

1. Inson miyasining dunyoni aks ettirish va shaxsning voqelikka munosabatini boshqarib turadigan faoliyati; fikrlash qobiliyati. *Jonzotlar ichida birgina odamzotga aql ato etib, yuragiga diyonatni joylabdi*. N. Norqobilov, To'qnashuv. Aqldan ozmoq. Fikrlash qobiliyatini yo'qotmoq, es-hushidan ayrilmoq. *Birinchi qadah chanqoqni*

1 Березин Ф.М. Общее языкознание // Учеб. пособие для студентов педагогических институтов по спец. – Москва, 1979. – С.210.

2 Дорофеева Т.М. Синтаксическая сочетаемость глагола. – Москва: Русский язык, 1986. – С.10. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Актант>

³ Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva G., Qurbonova M, Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B. 28; Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B. 28.

bosish uchun, ikkinchisi ~ xursandchshshk, uchinchisi –kayf qilib xuzurlanish, to'rtinchisi esa aqldan ozish uchun ichiladi. Gazetadan.

2. Fikrlash qobiliyatining amali; fahm-idrok, zehn. *Aqling bilan ko'r, ko'z aldaydi*. Maqol. Qaysi vazirim aqli ziyrak, donishmandligini bildirsa, xazinamdan o'n tillo va bosh-oyoq sarpo beraman. «Luqmoni Hakim». Aql bovar qilmaslik, aqlga sig'maslik, tasavvurga sig'maslik, tasavvur eta olmaslik. Nurlan aql bovar qshshaydigan hikoyasini bazo'r tamomladi. Gazetadan. Aql dan adashmoq yoki aqlini yo'qotmoq, aqlini emoq, aqli ketmoq. To'g'ri fikr-mulohaza yuritish, to'g'ri idrok etish holatini yo'qotmoq, es-hushini yo'qotmoq. *..Qizning chiroyliligiga bazzoz bola behush bo'lib, aql dan adashib yotib qolibdi..* «Luqmoni Hakim». «Yaxshi ko'rganda, kizlar aqlini yo'qotib qo'yadi», deyishadi. P. Qodirov, Uch ildiz. *...jo'nahammangham, aqling ebsan, yor-yor*. U. Ismoilov. Bobo, xafa qilding menday o'g'lingni, Aqling ketib, bobo, senga ne bo'ldi. «Nurali». Aql dan emas Akd yuritib qilingan to'g'ri ish emas. *Giyohvandlik bilan kurash yo'lida tabiatni xonavayron kilish akldan emas*. «Saodat». Aqli etmoq. To'g'ri idrok etmoq, mohiyatini tushunmoq. Aql kirmoq. (yosh bitmoq) Akd bilan ish tutadigan bo'lmoq, es-hushini yig'ib olmoq. *Qachon senga akl kiradi?! So'zlashuvdan*. Aqlni olmoq. Es-hushini og'dirmoq, maxdiyo qilmoq. *Kiygani gulgun qirmizi, Aqlingni olar jodu ko'zi*. «Malikai ayyor». Aqlini tanimoq. Aql bilan ish tutadigan bo'lmoq, shunday yoshga etmoq. *Inson tug'ilib, aqlini tanigan kundanok tevarak-atrofnı o'rab turgan borliq haqida o'ylay boshlaydi*. Gazetadan. Akl tish q. tish. Akl o'rgatmoq. Pand-nasihat, o'git, yo'l-yo'riq tarzidagi fikr-mulohaza aytmoq. Birov qoqilganda, aql o'rgatuvchilar, taftishchilar ko'payadi. S. Nurov, Maysalarni ayoz urmaydi.⁴

3. Mulohaza, maslahat tarzidagi fikr. *Ko'pdan ko'p aql chikar*. Maqol. *Endimenim aklim shukim, o'shal kandidateingiz tomoniga o'tganlarni ko'lga olish uchun Nurmat akamning hovlisiga chaqirib, bir oz ziyofatcha bilan ko'ngillarini topib shoyad qo'lga olib qolarmiz*. Hamza, Burungi saylovlar. «Aql» leksemasi inson miyasining dunyoni aks ettirish va shaxsning voqelikka munosabatini boshqarib turadigan faoliyati, fikrlash qobiliyati, aql dan ozmoq, fikrlash qobiliyatini yo'qotmoq, es-hushidan ayrilmoq kabi ma'nolarni ifodalab kelgan asosan shaxs bildiruvchi so'zlar bilan munosabatga kirishadi. Masalan, *Qizning chiroyi, aqlini ko'rib adashib qolibdi...*

So'zlarning birikishi haqida tushuncha tilshunoslikda turlicha talqin qilinmoqda. Dastlab, valentlik terminini tilshunoslikka olib kirgan L.Tener fe'l doirasida tushungan bo'lsa, faqat fe'lning gapda sub'ekt va ob'ektlarni biriktirishni nazarda tutgan. Demak, olim fe'lning zaruriy to'ldirilishi lozim bo'lgan bo'laklar sub'ekt va ob'ektlarni iboratdir, deb tushunadi. Vaholanki, fe'l kesimni boshqarib kelgan shunday bo'laklar borki, ular obligator valentlikning aktanti vazifasida keladi. Frantsuz tilshunosi A.V.Grot bir so'z turkumining ikkinchi turkumga nisbatan qo'llanishi chegaralanganligini, so'zning boshqa so'zni aniqlash yoki u tomondan o'zi aniqlash xususiyatiga ega yoki ega emasligini ko'rsatuvchi, deb biladi.⁵ Xulosa qilib aytganda, olimning bu fikrlari nutqda so'z turkumlarning bir-biri bilan zanjirsimon kabi bog'lanib kelishi valentlik sifatida baholanib kelishi mumkin. Yuqorida keltirilgan lug'at maqolada mavhum otlarning so'zlarga bog'lanishini tahlilga torishimiz aynan shu masalaning echimiga qaratilgan. Harakat natijasi bo'lgan holat fe'lining (*adashib qolibdi*) atrofidagi valentliklari quyidagicha joylashgan. Gap tarkibida kesim vazifasidagi *“adashib qoldi”* bo'lagi harakat natijasidagi holatni ifodalaganligi bois unga mos bo'lgan leksemalar birikishga harakat qilgan. Ochiqroq qilib tasvirlaydigan bo'lsak, kesim ob'ektiv olamdagi o'ziga tegishli bo'lgan leksemalarni magnitdagi tortishish kuchiga ega bo'lgandek biriktirib turibdi.⁶ Chunki bu fe'l tarkibidagi semalar o'ziga birikib kelgan leksemalarini semalariga mos ravishda shakllangan bo'lib, bu hodisaning yuzaga chiqishiga sabab bo'lmoqda. Bu nutq birligidagi chiziqli bog'lanish shundan iboratki, bu birikmaning hokim bo'lagi *“adashib qoldi”* fe'li, tobe bo'lagi esa *“ko'rib”* ravishdoshi hisoblanadi. Chunki bu fe'lning talabiga ko'ra bo'lagi *“ko'rib”* so'zi birikma uchun saylangan. Bitishuv yo'li bilan bog'langan bu birikma tarkibi juda ham murakkab tuzilmadan iborat bo'lib, birikma tarkibidagi *“adashib qoldi”* hokim so'zi ham semantik bog'langanligi ko'rinib turibdi. Birikma semantik jihatdan tahlil etilsa, shunga mos holatni kuzatish mumkin. *“adashib qoldi”* ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasidagi *“qoldi”* fe'li *“boshqa”, “joy”, “ket”, “bormay”, “jilmay”*,

⁴ Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1980. – Б.372; Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.199–205.

⁵ DeGroot A.W. Structurale Sintaxis. – den Haag 1949. – P.114 f.

⁶ Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2008. – Б.335.; Sharipov F. Ўзбек замонавий морфологик назариясининг шаклланиши, таракқиёт тенденциялари ва истиқболлари. Фил. фан. док. ...дисс. – Гулистон, 2022, 252 б.

“qo‘zg‘almay”, “o‘z joyida”, “bo‘l” kabi semalardan iborat bo‘lib, “*adashib*” fe‘lidagi “bo‘l” semasi bilan klassemani tarkib toptirgan hamda semantikali so‘z bilan birikmaga kirishgan. Bu zanjirsimon birikma hokim birikma sifatida shakllanib, “*adashib qoldi*” bo‘lagining talabiga ko‘ra tobe sifatida shakllangan “ko‘rib” so‘zi bitishuv jihatdan tanlab olingan. Boshqacha qilib aytganda, “*adashib qoldi*” ko‘makchi fe‘li tanlangan semasining “bo‘lmoq” va “o‘tmoq” semalariga ko‘ra semasida “bo‘lmoq” va “o‘tmoq” semalari bo‘lgan yondash so‘zni talab qiladi va bu hokim bo‘laklar tarkibidagi “bo‘lmoq” semasi “*adashib*” tobe bo‘lagi tarkibidagi “bo‘lmoq” semasi bilan klassemani tarkib toptirgan. Mana shu murakkab jarayon hokim so‘z tarkibidagi etakchi va ko‘makchi fe‘llarni bir-biriga bog‘lash vazifasini bajargandan so‘ng, ikkichi pozitsiyada tobe bo‘lakni bitishuv jihatdan o‘ziga biriktira olgan. O‘z navbatida gapda aktanti bog‘langan, “ko‘rib” aktantiga esa “chiroyi” va “aqlini” aktantlar, “chiroyi” va “aqlini” aktantlarga esa “qizning” so‘zi aktant bo‘lib kelganligini asos sifatida keltirish mumkin.

“Aql” leksemasining boshqa leksik ma‘nosi aqldan adashmoq yoki aqlini yo‘qotmoq, aqlini emoq, aqli ketmoq, to‘g‘ri fikr-mulohaza yuritish, to‘g‘ri idrok etish holatini yo‘qotmoq, es-hushini yo‘qotmoq kabi ma‘no taraqquyotlarida narsa va predmetlarga ishora qilayotganligini ko‘ramiz. Masalan, *Giyohvandlik bilan kurash yo‘lida tabiatni xonavayron kilish akldan emas.*

REFERENCES / ADABIYOTLAR

1. Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B. 28.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B. 28.
3. Hozirgi ўzbek адабий тили. – Тошкент: Фан, 1980. – Б.372.
4. Hozirgi ўzbek адабий тили. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.199–205.
5. Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2008. – B.335.
6. Sharipov F. Ўзбек замонавий морфологик назариясининг шаклланиши, тараққиёт тенденциялари ва истиқболлари. Фил. фан. док. ...дисс. – Гулистон, 2022, 252 б.
7. Березин Ф.М. Общее языкознание // Учеб. пособие для студентов педагогических институтов по спец. – Москва, 1979. – С.210.
8. Дорофеева Т.М. Синтаксическая сочетаемость глагола. – Москва: Русский язык, 1986. – С.10.
<https://ru.wikipedia.org/wiki/Актант>
9. DeGroot A.W. Structurale Sintaxis. – den Haag, 1949. – P.114 f.

Reviewer / Taqrizchi:

DSc Prof. I. T. Saymuratova
Gulistan State University